



ELEKTRON TIJORATDA ISTE'MOLCHI HUQUQLARINING XALQARO DARAJADAGI HUQUQIY MUHOFAZASI

Allambergenova Farida Bazarbay qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

magistratura bosqichi talabasi

“Biznes huquqi” yo‘nalishi talabasi

Email: faridaallambergenova98@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada elektron tijorat sharoitida iste'molchi huquqlarining xalqaro darajadagi huquqiy muhofazasi mavzusi yoritilgan. BMTning Iste'molchi huquqlari to'g'risidagi yo'riqnomasi, Yevropa Ittifoqi direktivalari, OECD tavsiyalari va UNCITRAL konvensiyalari asosida zamonaviy yondashuvlar tahlil qilinadi. Muallif elektron savdoning yuridik asoslarini xalqaro tajriba bilan solishtiradi.

Kalit so'zlar: Elektron tijorat, iste'molchi huquqlari, xalqaro huquq, UNGCP, OECD, YI direktivalari, UNCITRAL.

Abstract: This article analyzes the international legal protection of consumer rights in the context of electronic commerce. It examines modern approaches based on the UN Guidelines for Consumer Protection, EU directives, OECD recommendations, and UNCITRAL conventions. The author compares the legal frameworks of electronic commerce with international practice.

Keywords: E-commerce, consumer rights, international law, UNGCP, OECD, EU directives, UNCITRAL.



Аннотация: В данной статье рассматривается международно-правовая защита прав потребителей в условиях электронной торговли. Анализируются современные подходы на основе Руководящих принципов ООН по защите прав потребителей, директив ЕС, рекомендаций ОЭСР и конвенций ЮНСИТРАЛ. Автор сопоставляет правовые основы электронной торговли с международной практикой.

Ключевые слова: Электронная торговля, права потребителей, международное право, UNGCP, ОЭСР, директивы ЕС, ЮНСИТРАЛ.

KIRISH.

Elektron tijorat global xarakter kasb etgani bois, iste'molchilarning huquqlarini xalqaro darajada himoya qilish zarurati ortmoqda. BMTning Iste'molchi huquqlari to'g'risidagi yo'riqnomasi (UNGCP), Yevropa Ittifoqining 2011/83/EU-sonli Iste'molchi huquqlari to'g'risidagi direktivasi, OECDning 2016-yilgi tavsiyalari [1] va UNCITRAL konvensiyalari bu borada asosiy xalqaro-huquqiy manbalar hisoblanadi [2].

Bu hujjatlar elektron shartnomalar tuzishda axborotning shaffofligi, raqamli xavfsizlik, shartnomaviy javobgarlik va iste'molchining fikridan qaytish huquqi kabi tamoyillarni o'z ichiga oladi. Masalan, UNGCP iste'molchilarning axborotga bo'lgan huquqlarini, onlayn savdoda adolat va xavfsizlikni ta'minlashni tavsiya etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Elektron tijoratda iste'molchi huquqlarining xalqaro huquqiy muhofazasi borasida mavjud adabiyotlar bir necha asosiy yo'nalishga bo'linadi. Avvalo, xalqaro normativ hujjatlar — BMT tomonidan qabul qilingan Iste'molchi huquqlari to'g'risidagi yo'riqnoma (UNGCP), Yevropa Ittifoqining 2011/83/EU va 2000/31/EC-sonli direktivalari, OECD tavsiyalari va UNCITRAL konvensiyalari asosiy huquqiy manba sifatida e'tirof etiladi. Ushbu hujjatlar xalqaro miqyosda iste'molchilar huquqlarining axborotga bo'lgan huquqi,



shaffoflik, xavfsizlik, shartnomaviy mas'uliyat va to'lovlarni qaytarish mexanizmlarini tartibga solishga qaratilgan.

Ilmiy-analitik manbalar orasida, I. Ramsay (2012)ning "Consumer Law and Policy" asari, G. Howells va T. Wilhelmsson tomonidan tahrirlangan "Handbook of Research on International Consumer Law" (2018), hamda J. Ziegelning Anglo-kanada huquqiy tizimi doirasida elektron shartnomalar bo'yicha tahlillari e'tiborga molik. Mazkur asarlarda elektron savdo va raqamli xizmatlar bozorida shartnomaviy muvozanat va iste'molchi manfaatlarini muhofaza qilishda davlat siyosatining roli ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, Buyuk Britaniyada amal qiluvchi **Consumer Rights Act 2015** va AQSHdagi **E-SIGN Act 2000**, **FTC** qo'llanmalari haqidagi amaliy-tahliliy maqolalar xalqaro normativ huquqni qo'llashda muhim asos bo'ladi.

O'zbek olimlari orasida M.X. Rustamov, D.R. Jo'rayev, Z.X. Qadirova, O.N. Islomovlarning elektron tijorat va iste'molchi huquqlari yuzasidan fikrlari milliy amaliyotni chuqur yoritib beradi. Biroq, ularning ishlarida xalqaro huquqiy normalarning implementatsiyasi bilan bog'liq jihatlar hali yetarli darajada tahlil etilmagan.

Yuqoridagi adabiyotlar muallifga elektron tijorat sohasidagi xalqaro huquqiy me'yorlarni tahlil qilish, solishtirish hamda O'zbekiston qonunchiligidagi bo'shliqlarni aniqlash imkonini berdi. Mazkur tahlillar maqolaning konseptual va daliliy asosini tashkil etadi.

Ushbu maqola yuridik-huquqiy tahlil metodiga asoslangan bo'lib, unda xalqaro huquqiy hujjatlar, milliy qonunlar va normativ-huquqiy aktlar solishtirma huquq metodlari yordamida o'rganildi. Komparativ yondashuv yordamida Yevropa Ittifoqi, AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada va O'zbekiston qonunchiligi qiyosiy tahlil qilindi.

Bundan tashqari, tarixiy-huquqiy metod orqali iste'molchi huquqlarining evolyutsiyasi, BMT va boshqa xalqaro tashkilotlarning normativ hujjatlari qanday shakllanganiga doir kontekstual izlanishlar olib borildi. Analitik metod orqali esa elektron



tijorat munosabatlarida vujudga kelayotgan muammolar, ularning sabablari va yechim yo‘llari tahlil etildi.

Amaliy materiallar sifatida elektron tijorat platformalari — Amazon, eBay, AliExpress — tomonidan joriy etilgan iste’molchilarni himoya qilish tizimlari o‘rganilib, xalqaro tamoyillar bilan mosligi tahlil qilindi. Shu orqali maqolada normativ asoslar bilan bir qatorda real hayotdagi misollar va case-studylar asosida takliflar ilgari surildi.

ISTE’MOLCHI HUQUQLARINING TARIXIY SHAKLLANISHI VA XALQARO RIVOJLANISHI

Iste’molchi huquqlarining shakllanishi insoniyat tarixidagi iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq. Ilk bosqichlarda iste’molchilarning huquqlari ko‘proq an‘anaviy me‘yorlarga asoslangan bo‘lib, shartnomaviy tengsizlik va savdo operatsiyalaridagi xavf iste’molchining zimmasida bo‘lgan. XIX asrning oxirlariga kelib, industrial inqilob va ommaviy ishlab chiqarish vositalarining kengayishi iste’molchilarning himoyasini qonuniy jihatdan tartibga solish zaruratini yuzaga keltirdi. Ayniqsa, 1962-yilda AQSh Prezidenti Jon Kennedining Kongressdagi ma‘ruzasi muhim burilish nuqtasi bo‘ldi. U o‘z nutqida iste’molchilarning to‘rt asosiy huquqini — xavfsizlik, axborot, tanlov va fikr bildirish huquqini rasman e‘tirof etgan [3]. Ushbu tamoyillar keyinchalik BMT tomonidan ishlab chiqilgan Iste’molchi huquqlari to‘g‘risidagi yo‘riqnomaning asosini tashkil etdi.

1985-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan UNGCP (United Nations Guidelines for Consumer Protection) global miqyosda iste’molchilar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha birinchi kompleks hujjat bo‘ldi. Bu hujjat davlatlarga iste’molchilarni himoya qilish sohasida milliy siyosat ishlab chiqish va amalga oshirishda mezon sifatida xizmat qilishi kerak edi. 2015-yilda mazkur hujjatga muhim o‘zgartirishlar kiritilib, unda elektron tijorat, raqamli xavfsizlik, onlayn platformalar va raqamli xizmatlarga oid normalar ham o‘z aksini topdi [4].



YEVROPA ITTIFOQI DIREKTIVALARI VA OECD TAVSIYALARI ASOSIDA ISTE'MOLCHI HUQUQLARINING MUHOFAZASI

Yevropa Ittifoqi elektron tijoratda iste'molchi huquqlarining muhofazasini ta'minlash maqsadida bir nechta muhim direktivalarni qabul qilgan bo'lib, ular orasida 2011/83/EU-sonli Iste'molchi huquqlari to'g'risidagi direktiva alohida o'rin egallaydi [5]. Ushbu direktiva masofaviy shartnomalar va onlayn savdo munosabatlarida iste'molchilarning axborotga bo'lgan huquqi, shartnomadan voz kechish muddati (14 kun ichida), oldindan to'lov va elektron to'lov xavfsizligi kabi muhim jihatlarni tartibga soladi. Bundan tashqari, 2000/31/EC-sonli Elektron tijorat to'g'risidagi direktiva elektron xizmat ko'rsatish jarayonida xalqaro bozorni tartibga soluvchi muhim normativ hujjat hisoblanadi. U axborot berish majburiyati, reklamaga oid shaffoflik, shartnoma shartlarining elektron vositalar orqali berilishi va xizmat ko'rsatuvchining aniqligi kabi mezonlarni belgilaydi [6].

OECD esa 2016-yilda elektron tijoratda iste'molchi huquqlarini muhofaza qilishga oid tavsiyalarni yangilagan bo'lib, bu hujjatda raqamli platformalardagi ishtirokchilarning javobgarligi, shaffoflik, foydalanuvchi roziligi, onlayn shikoyatlar tizimi va tahdidga javob berish mexanizmlari alohida ko'rsatilgan. OECD tavsiyalari Yevropa Ittifoqi direktivalariga nisbatan tavsiya darajasida bo'lsa-da, ular ko'plab davlatlar tomonidan normativ huquqiy asoslarni ishlab chiqishda asos sifatida foydalanilmoqda. Ayniqsa, transchegaraviy savdo holatlarida iste'molchilarni himoya qilishning universal yondashuvlarini shakllantirishda OECD hujjatlari asosiy rol o'ynaydi [7].

Yuqoridagi hujjatlarning amaliy ahamiyati shundaki, ular elektron savdo jarayonida iste'molchilar oldida vujudga keladigan noaniqlik va xavflarni oldindan bartaraf etish, axborotga bo'lgan huquqni kafolatlash, xavfsizlikni ta'minlash, va shartnomaviy munosabatlarda muvozanatni tiklash imkonini beradi. Yevropa Ittifoqi va OECD tomonidan taklif etilgan ushbu standartlar elektron tijoratda ishonch muhitini yaratishda, ayniqsa iste'molchi nuqtai nazaridan, muhim ahamiyat kasb etadi.



Bugungi kunda xalqaro darajadagi iste'molchi huquqlari muhofazasi nafaqat BMT doirasidagi hujjatlar, balki Yevropa Ittifoqi direktivalari, OECD tavsiyalari, hamda UNCITRAL konvensiyalariga tayanadi. Bu hujjatlar xalqaro savdo munosabatlari va raqamli iqtisodiyot sharoitida iste'molchi manfaatlarini muvofiqlashtirilgan tarzda himoya qilishga qaratilgan. Ayniqsa, global texnologik kompaniyalarning faoliyati iste'molchilar oldidagi yangi huquqiy muammolarni keltirib chiqarayotgan bir paytda, xalqaro hamkorlik va standartlashtirilgan yondashuvlar zaruriyati tobora ortib bormoqda.

ANGLO-SAKSON DAVLATLARI AMALIYOTI (AQSH, KANADA, BUYUK BRITANIYA)

Anglo-sakson huquqiy tizimiga mansub davlatlar — AQSH, Buyuk Britaniya va Kanada — elektron tijoratda iste'molchi huquqlarini himoya qilishda o'ziga xos yondashuvlarga ega. AQSHda Federal Trade Commission [8] iste'molchilar huquqlarini himoya qiluvchi asosiy tashkilot sifatida faoliyat yuritadi. FTC tomonidan ishlab chiqilgan 'Dot Com Disclosures' va 'Guides Concerning the Use of Endorsements and Testimonials in Advertising' nomli qo'llanmalar iste'molchilarga nisbatan aldov va chalg'ituvchi reklamalarning oldini olishga yo'naltirilgan. Bundan tashqari, Electronic Signatures in Global and National Commerce Act [9] elektron shartnomalarning qonuniy kuchini tan oladi. Buyuk Britaniyada esa Consumer Rights Act 2015 raqamli kontent, xizmatlar va tovarlar bo'yicha iste'molchi huquqlarini aniq belgilaydi [10]. Kanada esa Personal Information Protection and Electronic Documents Act [11] orqali iste'molchilarning shaxsiy ma'lumotlari xavfsizligini ta'minlaydi va elektron savdodagi huquqiy mas'uliyatni aniqlashtiradi.

O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA XALQARO STANDARTLARGA UYG'UNLASHTIRISH YO'NALISHLARI

O'zbekiston Respublikasi "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonun [12] asosida elektron savdo munosabatlarini tartibga solmoqda. Mazkur qonunda elektron hujjat va elektron imzo



institutlari muhim o‘rin tutadi. Biroq, xalqaro huquqiy me‘zonlar bilan solishtirilganda, iste‘molchi huquqlarini himoya qilishda ba‘zi bo‘shliqlar mavjud. Masalan, axborotga doir huquq, onlayn shikoyatlar tizimi, shartnomaviy mas‘uliyat va xavfsizlik protokollari aniq belgilanmagan. Shu boisdan O‘zbekiston amaliyotida UNGCP, OECD tavsiyalari va YI direktivalarining asosiy tamoyillarini qonunchilikka inkorporatsiya qilish zarurati dolzarb hisoblanadi. Bu esa nafaqat iste‘molchilar huquqlarini xalqaro standartlarga mos tarzda himoya qilishga, balki investitsiyaviy muhitni yaxshilashga ham xizmat qiladi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida elektron tijoratda iste‘molchi huquqlarini samarali himoya qilish uchun normativ-huquqiy asoslarni yanada takomillashtirish talab etiladi. Amaldagi qonunchilikda iste‘molchilar va onlayn xizmat ko‘rsatuvchilar o‘rtasidagi huquqiy munosabatlarda ishonchlilik va shaffoflik mezonlari yetarlicha mustahkamlanmagan. Xususan, shartnomadan voz kechish, tovarlar va xizmatlar haqidagi oldindan ma‘lumot berish, qayta to‘lov shartlari hamda xizmatni belgilangan sifatda taqdim etish majburiyatlari amalda keng qamrovli tarzda tartibga solinmagan. Bu esa iste‘molchining raqamli muhitda o‘z huquqlaridan to‘laqonli foydalanishini cheklaydi. Yevropa Ittifoqining 2011/83/EU-sonli direktivasi va OECD tavsiyalari asosida, masofaviy shartnomalar uchun axborot berish va qayta fikrlash muddatlariga doir aniq qoidalarni milliy qonunchilikka tatbiq etish orqali ushbu kamchiliklarni bartaraf etish mumkin bo‘ladi.

Bundan tashqari, xalqaro elektron savdo maydonlarida yuzaga keladigan nizolarni hal etish mexanizmlarini joriy etish ham O‘zbekiston uchun dolzarb masala hisoblanadi. Ko‘plab rivojlangan mamlakatlar, xususan AQSH va Yevropa Ittifoqi davlatlarida Onlayn Nizolarni Hal qilish (ODR) platformalari amaliyotda keng qo‘llanilib, iste‘molchilar uchun tezkor va kam xarajatli huquqiy yechimlar taqdim etmoqda. O‘zbekistonda bunday tizimlarning yo‘qligi iste‘molchi manfaatlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli, raqamli arbitraj, onlayn mediatorlik va veb asosidagi shikoyat tizimlarini yaratuvchi platformalar ishlab chiqilishi va qonunchilikda alohida e‘tirof etilishi, nafaqat



huquqiy himoyani kuchaytiradi, balki O‘zbekistonni xalqaro elektron savdo tizimiga integratsiyalashuvini ham jadallashtiradi.

Amaliy misollar (case studies): eBay, Amazon, AliExpress, ODR platformalari

Amaliyotda elektron tijorat platformalari iste’molchi huquqlarini turlicha himoya qiladi. Masalan, Amazon o‘zining 'A-to-z Guarantee' dasturi orqali xaridorlarni ishonchli himoya tizimi bilan ta'minlaydi [13]. Bu tizim doirasida mijozlar noto‘g‘ri yoki shikastlangan mahsulot olganda mablag‘ini qaytarib olish imkoniyatiga ega. eBay platformasi esa xaridor va sotuvchi orasidagi nizolarni onlayn nizolarni hal etish [14] mexanizmlari orqali yechishga harakat qiladi. AliExpressda esa “Buyer Protection” dasturi mavjud bo‘lib, mahsulot yetkazilmasligi yoki noto‘g‘ri yetkazilishi holatlarida qayta to‘lov yoki almashtirish kafolatlanadi [15]. Bu tizimlar xalqaro me’yorlar — xususan, UNGCP va OECD tamoyillariga mos holda ishlab chiqilgan bo‘lib, raqamli ishonch muhitini yaratishga xizmat qiladi.

XULOSA

Elektron tijorat munosabatlarida iste’molchi huquqlarining xalqaro darajada huquqiy muhofazasi dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib, bu borada BMT, YI, OECD, UNCITRAL va ayrim rivojlangan davlatlarning tajribalari muhim o‘rin tutadi. Anglo-sakson tizimi aniq tartibga solish, yuridik majburiyatlar va reklama shaffofligiga urg‘u bersa, Yevropa yondashuvi iste’molchilar xavfsizligini birinchi o‘ringa qo‘yadi. O‘zbekiston tajribasi esa bu yondashuvlar bilan uyg‘unlashish bosqichida bo‘lib, ilg‘or xalqaro amaliyotni o‘rganib, qonunchilikni takomillashtirishga e’tibor qaratmoqda. Taklif sifatida, O‘zbekiston huquqiy tizimida shikoyatlar uchun ODR platformalari joriy etilishi, iste’molchilar axborotga egalik qilish huquqi mustahkamlanishi, shuningdek, raqamli xavfsizlik standartlari ishlab chiqilishi lozim. Bularning barchasi elektron savdo ishtirokchilarining huquqiy himoyasini ta'minlash va iqtisodiy barqarorlikka erishish uchun muhim asosdir.



REFERENCES:

1. European Commission. (2011). Directive 2011/83/EU of the European Parliament and of the Council of 25 October 2011 on consumer rights. Retrieved from <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX%3A32011L0083>
- OECD. (2016). OECD Recommendation on Consumer Protection in E-commerce. Retrieved from <https://legalinstruments.oecd.org/en/instruments/OECD-LEGAL-0422>
2. UNCTAD. (2016). United Nations Guidelines for Consumer Protection. Retrieved from https://unctad.org/system/files/official-document/ditccplpmisc2016d1_en.pdf
- UNCITRAL. (2005). United Nations Convention on the Use of Electronic Communications in International Contracts. Retrieved from https://uncitral.un.org/en/texts/ecommerce/conventions/electronic_communications
3. Kennedy, J. F. (1962, March 15). Special Message to the Congress on Protecting the Consumer Interest. The American Presidency Project. Retrieved from <https://www.presidency.ucsb.edu/documents/special-message-the-congress-protecting-the-consumer-interest>
4. UNCTAD. (2016). United Nations Guidelines for Consumer Protection. Retrieved from https://unctad.org/system/files/official-document/ditccplpmisc2016d1_en.pdf
5. European Commission. (2011). Directive 2011/83/EU of the European Parliament and of the Council of 25 October 2011 on consumer rights. Retrieved from <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX%3A32011L0083>
6. European Commission. (2000). Directive 2000/31/EC on electronic commerce. Retrieved from <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX:32000L0031>
7. OECD. (2016). OECD Recommendation on Consumer Protection in E-commerce. Retrieved from <https://legalinstruments.oecd.org/en/instruments/OECD-LEGAL-0422>
8. Federal Trade Commission, 'Dot Com Disclosures: How to Make Effective Disclosures in Digital Advertising', FTC, March 2013,



<https://www.ftc.gov/sites/default/files/attachments/press-releases/ftc-staff-revises-online-advertising-disclosure-guidelines/130312dotcomdisclosures.pdf>

9. E-SIGN Act 2000 (Electronic Signatures in Global and National Commerce Act), Public Law 106–229, 15 U.S.C. §§ 7001–7031.

10. Consumer Rights Act 2015 (UK), c. 15.

11. PIPEDA (Personal Information Protection and Electronic Documents Act), S.C. 2000, c. 5 (Canada).

12. O‘zbekiston Respublikasi “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi Qonuni, 2015-yil 29-aprel, O‘RQ–395-son.

13. Amazon, 'A-to-z Guarantee Protection',

<https://www.amazon.com/gp/help/customer/display.html?nodeId=GKM69DUUYKQWKWX7>

14. eBay, 'eBay Money Back Guarantee', <https://www.ebay.com/help/policies/ebay-money-back-guarantee-policy/ebay-money-back-guarantee-policy?id=4210>

15. AliExpress, 'Buyer Protection', <https://www.aliexpress.com/buyerprotection>